

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



“O‘TGAN KUNLAR” ROMANI TARJIMALARIDA MILLIYLIK IFODASI

*Maxliyo Xabibullayeva**Katta o‘qituvchi, mustaqil tadqiqotchi,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Milliy madaniyat, milliy kolorit, milliy ruh, realiya, metafora, frazeologik iboralar, maqol, matal, kesatiq va qochiriq, mutarjim.

Annotatsiya: Mazkur maqola Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani tarjimalarida milliylikni ifodalovchi atamalarning qanday yoritilganligini o‘rganishga va misollar yordamida tahlil qilishga qaratilgan.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyingi yillarda o‘zbek milliy adabiyotining eng sara durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish va shu orqali xalqimiz urf-odatlarini, an‘analari, madaniyati, qo‘yingki tilini butun dunyoga tanishtirishga va ularning tasavvuriga etkazishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Mustaqillikka qadar barcha asarlarimiz boshqa tillarga bilvosita, asosan rus tili orqali tarjima qilingan bo‘lsa, endilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri bevosita amalga oshirilmog‘da va bu xorij kitobxonlari tomonidan yaxshi kutib olinmog‘da. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, o‘zbek xalqining milliy ruh va ma‘naviy dunyosini o‘zida mujassam etgan A.Qodiriy, A.Qahhor, P. Qodirov kabi buyuk yozuvchi va romannavislarimizning asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilishda nafaqat o‘zbek tarjimonlari, balki chet el mutarjmlarining bel bog‘lashgani bugungi muvaffaqiyatimiz nishonidir. Asosan tarixiy asarlarimizning g‘arb tillariga o‘g‘irinishi o‘zga zabon kitobxonlariga yurtimiz tarixi, buyuk siymolarimiz faoliyati va ular yaratgan hamda bizga meros qilib qoldirilgan buyuk yodgorliklari haqida, bizning ziyoli ajdodlarimiz va ularning taqdirleri haqida yetarlicha ma‘lumot olishga imkon beradi. Ushbu tarjima asarlarini o‘qigach, o‘zbek xalqi naqadar boy adabiy merosga ega ekanligiga o‘zlari guvoh bo‘lishadi.

Bugungi kunda tarjimonlar oldida turgan murakkab vazifalardan, ya'ni ular tez-tez duch keladigan muammolardan biri ham, har qanday asarni boshqa tilga o'g'irganda asliyatdagi milliylikka alohida urg'u berish kerakligidir. Shuning uchun ham ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi asarda ifodalangan milliy xususiyatlarni yoritishda xorijiy tarjimonlar qo'llagan usullarni o'rganish, ularni misollar orqali tahlil qilish va ular qay darajada mahoratli ish olib borganliklarini tadqiq qilishdan iborat. Bu maqolada "O'tgan kunlar"ni o'zbek tilidan bevosita ingliz tiliga o'g'irgan amerikalik tarjimon Mark Riz va asarni rus tilidan ingliz tiliga bilvosita tarjima qilgan mutarjim Karol Ermakovalarning tarjimalari bir-biriga qiyoslanib, asliyatga solishtirib o'rganildi. Tadqiqot so'nggida esa bevosita tarjima bilvosita tarjimaga nisbatan asliyatga ancha yaqin turadi va undagi milliy ruh, milliy kolorit ko'proq saqlanib qolinadi, degan xulosaga kelindi.

THE EXPRESSION OF NATIONALITY IN THE TRANSLATIONS OF THE NOVEL "BYGONE DAYS "

Makhlilo Khabibullaeva

*Senior lecturer, independent researcher,
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: National culture, national character, national spirit, reality, metaphor, phraseological expressions, proverb, saying, sarcasm and parable, translator.

Abstract: This article aims to study how the terms representing nationality are covered in the translations of Abdulla Qadiri's novel "O'tgan Kunlar" and to analyze them with the help of examples. In the years after the independence of our country, the interest in translating the best masterpieces of Uzbek national literature into foreign languages and thereby introducing the customs, traditions, culture, and language of our people to the whole world is increasing. Before independence, all our works were translated into other languages indirectly, mainly through Russian, but now they are being translated directly, and this is well received by foreign readers. At this point, it should be noted that not only Uzbek translators but also foreign translators are involved in translating the works of our great writers and novelists such as A. Qadiri, A. Qakhkor, P. Kadirov, who embodied the national spirit and spiritual world of the Uzbek people, into foreign languages. We should mention the fact that translators and even foreign translators have joined hands is a sign of our success today. Mainly, the translation of our historical works into Western languages allows readers of other languages to get enough information about the history of our country, the great deeds of our great

figures and the great monuments they created and left us as a legacy. They also get to know more about our intellectual ancestors, their life and fates. After reading these translated works, they will witness for themselves how rich the literary heritage of the Uzbek people is. One of the complex tasks facing translators today, that is, one of the problems they often face, is the need to pay special attention to the original nationality when translating any work into another language. Therefore, the main goal of this research is to study the methods used by foreign translators in highlighting the national characteristics expressed in the work, to analyze them through examples, and to investigate the extent to which they have done their work skillfully. In this article, the translated works of the American translator Mark Reese, who directly translated "Otgan Kunlar" from Uzbek to English, and the translator Karol Ermakova, who translated the work indirectly from Russian to English, were compared to each other, and then compared to the original version of the novel. At the end of the research, it was concluded that the direct translation is much more closer to the original than the indirect translation, and the national spirit and national color could be more preserved in it.

ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОСТИ В ПЕРЕВОДАХ РОМАНА " МИНУВШИЕ ДНИ "

Махлиё Хабибуллаева

*Старший преподаватель, независимый исследователь,
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

Национальная культура, национальный колорит, национальный дух, реалия, метафора, фразеологические выражения, пословица, поговорка, сарказм, переводчик

Аннотация: Целью данной статьи является изучение того, как термины, обозначающие национальность, освещаются в переводах романа Абдуллы Кадири «Минувшие дни», и их анализ на примерах. В годы после обретения независимости нашей страны возрос интерес к переводу лучших шедевров узбекской национальной литературы на иностранные языки и тем самым к ознакомлению всего мира с обычаями, традициями, культурой и языком нашего народа. До обретения независимости все наши произведения переводились на другие языки косвенно, в основном через русский, но сейчас они переводятся напрямую, и это хорошо воспринимается зарубежными читателями. Здесь следует отметить, что переводами произведений наших великих писателей и прозаиков, таких как А. Кадыри, А. Каххор, П.

Кадыров, воплотивших национальный дух и духовный мир, занимаются не только узбекские, но и иностранные переводчики. Следует отметить тот факт, что переводчики и даже иностранные переводчики взяли за руки, что является признаком нашего успеха сегодня. Главным образом, перевод наших исторических трудов на западные языки позволяет читателям других языков получить достаточно информации об истории нашей страны, великих делах наших великих деятелей и великих памятниках, которые они создали и оставили нам в наследство. Они также узнают больше о наших интеллектуальных предках, их жизни и судьбах. Прочитав эти переводные произведения, они сами удостоверятся, насколько богато литературное наследие узбекского народа. Одной из сложных задач, стоящих сегодня перед переводчиками, то есть одной из проблем, с которыми они часто сталкиваются, является необходимость уделять особое внимание национальности оригинала при переводе любого произведения на другой язык. Поэтому основная цель данного исследования – изучить методы, используемые иностранными переводчиками при выделении национальных особенностей, выраженных в произведении, проанализировать их на примерах, выяснить, насколько умело они выполнили свою работу. В данной статье сравнивались между собой переводные произведения американского переводчика Марка Риза, непосредственно переведшего «Минувшие дни» с узбекского на английский, и переводчицы Кароль Ермаковой, переведшей произведение косвенно с русского на английский, а затем по сравнению с оригинальной версией романа. В конце исследования был сделан вывод, что прямой перевод гораздо ближе к оригиналу, чем косвенный, и в нем более сохранен национальный дух и национальный колорит.

KIRISH

Jahon adabiyotida tarjima asarlar milliy adabiyotning bebaho mulkiga aylanibgina qolmay, balki asrlar davomida xalqlarning milliy madaniyati, urf-odatlarini, an'analari, milliy taomlari, yashash tarzi, cholg'u asboblari, kiyim-kechaklari, ro'zg'or anjomlari, turar joy nomlari, o'sha paytdagi mansablar (unvonlar) haqida tasavvur hosil qilish, tanishish va ularni yaqindan o'rganish imkoniyatini taqdim qilgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyingi yillarda milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini xorijiy tillarga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning turmush tarzi, insoniy fazilatlarini umuman olganda, ijtimoiy-maishiy hayotini keng namoyish etish uchun ham katta imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

So'nggi yillarda badiiy tarjima ishi jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritayotganligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, o'zbek adabiyotidan g'arb tillariga tarjima qilish adabiy jarayonning faol bir yo'nalishiga aylandi. Iste'dodli o'zbek adiblari asarlarining qisqa vaqt ichida ingliz tiliga to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tarjima qilinishi va bu ijod namunalarining jahon adabiyotida shu zabon kitobxonlari tomonidan iliq qarshi olinishi tarjimashunoslik sohasida erishayotgan muvaffaqiyatlarimiz nishonidir. Ushbu tarjima asarlari orasida Abdulla Qodiriy, Pirmqul Qodirov va Abdulla Qahhor qalamiga mansub tarixiy romanlar alohida o'rin egallaydi.¹ Bu romanlar o'zbek xalqining ma'naviy dunyosi va milliy ruhiyatini yaqqol namoyon etgan badiiy yuksak asarlar sifatida inglo-amerika kitobxonlari diqqatini jalb etdi. Mazkur asarlarning Amerika va boshqa xorijiy mamlakatlarda chop etilishi o'zbek adabiyotiga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi. Tarixiy romanlarning chet tillariga tarjima qilinishi xalqning milliy qadriyatlarini dunyoga tanitishda muhim ro'l o'ynaydi.

Tarixiy asarlarni tarjima qilish jarayonida asosan, milliylikka xos bo'lgan atamalar tarjimasiga jiddiy yondashish kerak bo'ladi. Binobarin, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov asardagi milliylikning kuchiga quyidagicha ta'rif bergan edilar: **“ Milliylik ruhi yo'q asar qog'oz gulga o'xshaydi. Husni boru, hidi yo'q.”**² Darhaqiqat, tarjima jarayonida asardagi milliy xarakterni, milliy koloritni saqlab qolish juda muhim omillardan biri sanaladi. Negaki, bunda mutarjim qo'lida bitta millat o'tmishi, hoziri va kelajagi, ya'ni bir so'z bilan aytganda, millat taqdiri turadi. Shuning uchun tarjimondan millat taqdiriga yeng uchida qaramasdan, bor mahoratini ishga solib, milliylikka xos bo'lgan har bir mayda detallarga ham e'tiborli bo'lish talab etiladi.

Tarixiy asarlarimizda bugungi kunda qo'llanilmayotgan yoki kam uchraydigan, ya'ni kitobxonlarga notanish bo'lgan atamalar uchrashi tabiiy holat bo'lganligi sababli ham, ularni boshqa tillarga o'girish jarayonida, faqatgina ularning sinonimlari yoki ekvivalentlarini qo'llash emas, balki ularga izohlar berib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda ushbu asarlarning tarjimasini o'qiyotgan kitobxonlarda shu zamonning milliy atamalari haqida aniqroq tasavvur hosil bo'ladi. Masalan, Qodiriy asarlarida ishlatilgan milliy kiyim-boshlarni ifodalovchi atamalarni olsak, ularning ayrimlari eski o'zbek tilida qo'llanilgan, bugungi kun muloqotida ishlatilmaydigan eskirgan so'zlar bo'lganligi tufayli hozirgi yosh avlodlarimiz ham ularning ma'nolariga tushuna olmasliklari yoki ularda savollar tug'ilishi mumkin. Shu kabi anglashmovchiliklarning oldini olish maqsadida, kitobxonga tushunarli bo'lishi va tez uqib olishi uchun ham kiyim-kechaklarni ifodalovchi atamalarga izoh berib, ya'ni chiroyli ta'rifini keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek romanchiligining asoschisi, atoqli so'z ustasi A.Qodiriyning so'z qo'llash mahorati nihoyatda yuqori bo'lgani hech kimga sir emas. U o'z ijodida metafora, metonimiya kabi badiiy tasvir vositalaridan juda mohirona foydalanganini yaxshi bilamiz. Shu bilan birga muallif tilning rango-rangligini, o'zbek tilining qadimdan boy til bo'lganligini o'z asarlarida yaqqol namoyon etgan. Masalan, A.Qodiriy milliy kiyim-boshlarni tasvirlaganda takroriylikdan nihoyatda uddaburonlik bilan chiqib ketganligini ko'rishimiz mumkin. Adibning “O'tgan kunlar” asarida ishlatilgan oddiygina *chopon*³ so'zini turli joylarda qo'llaganda uning o'rniga *chopon* emas, balki *po'stin*, *kamzul*, *chakman*, *to'n*, *chekmon* kabi sinonimlarini qo'llagan bo'lsa, shu kiyim-boshlarni kiygan insonlarning jamiyatdagi mavqelarini, ya'ni qaysi mansabdali yoki qaysi tabaqaga mansubligi hamda qanday lavozimdaligini ifodalash uchun, ularning kiyimini tasvirlashda turli xil sifatlardan o'rinli foydalana olgan, ya'ni *sovsar po'stin*, *zarrin chopon*, *kimxob to'n*, *guppi chopon*, *o'qalik to'n*,

¹ Khabibullaeva M. Experience of translating historical novels in translation studies.//American Journal of social science and education innovations 6 (6), 2021. P.85

² Hamidov X., O'zbek qissa va romanlari turk tilida. –T: “Effect-D” 2022.-B.15.

³ Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar.-T. G'afur G'ulom. -1973. -B.22.

kimxob chopon, bo'zdan chopon, oshlangan qo'y po'stagidan po'stin, Buxoroning ola-bayroq matosidan chopon, oq olacha to'n, O'ratega bosmasining chakmani, movut kamzul kabi birikmalarni ishlatib asardagi badiiylikni kuchaytirish bilan birga, bu kiyim-boshlarning qayerdan kelib chiqqanligiga ham ishora berib o'tadi.

Xo'sh, adibimizning ushbu mahoratini asarni ingliz tiliga o'g'irishda xorijlik tarjimonlar qay darajada ko'rsatib bera olishdi? O'zbek adabiyoti durdonasi bo'lgan "O'tgan kunlar" romanini ingliz tiliga tarjima qilishga ilk bora hamyurtimiz Samarqand davlat universiteti professori I. To'xtasinov va uning jamoasi qo'l urishdi. Xorijlik mutaxassislardan esa pennineslik tarjimon Kerol Yermakova asarni rus tilidan "**Days gone by**" nomi bilan inglizchaga tarjima qilgan. Ushbu roman o'z navbatida 2019 yilda "**Bygone days**" nomi ostida amerikalik tarjimon Mark Riz tomonidan ingliz tiliga o'girildi. Birinchi tarjimon asarni bilvosita rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilgan bo'lsa, ikkinchi tarjimon bevosita o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishga 15 yilda musharraf bo'ldi. Ammo ular romanning ikkita turli (o'zbek va rus) tillaridan asliyat tili sifatida foydalanganliklari sababli ham tarjimada biz turlicha farqlarni ko'rishimiz mumkin. Mutarjim Mark Riz: "Tarjimon kimningdir asarini oladi-da, uni boshqa xalqlar o'quvchilari tushunadigan tilda ifodalaydi. Tarjima bu qandaydir fan sohasi emas, balki muallifning fikrini yetkazib berish san'atidir" - deya o'z fikrini bildirib, ana shu maqsadda o'z o'quvchilarining tushunishlari osonroq bo'lishi uchun romandagi muhim holatlar bo'yicha 500 ga yaqin izohlar kiritganligini ta'kidlaydi".⁴

Quyida biz romandagi milliylikni ifodalovchi milliy kiyim-boshlarimizning inglizcha tarjimalarda qanday aks etganligini tahlil qildik.

Asliyat: *Ikki yoshning muhabbatli, uvali-juvali bo'lishlariga duo qilingach, sovchilarga zarrin to'nlar kiydirildi. Hasanali iljaygan kuyi qo'ltig'idan zarrin choponni olib sandal ustiga qo'ydi*⁵.

O'zbek tilidan inglizchaga tarjimasi: *After praying for the two youngsters to love one another and to produce many children, the matchmakers were given gilded robes. Smiling, Hasan Ali took out from under his arm a gilded robe, placing it on the sandal*⁶.

Rus tilidan inglizchaga tarjimasi: *The contract of life sealed, they prayed for the happiness of the young couple, and for the continuance of generations. The matchmakers were then given brocaded khalats. With a smile, Khasanali placed the festive brocade khalat by the sandal*⁷.

Yuqoridagi tarjimalardan ko'rinib turibdiki, har ikki tarjimon ham *zarrin choponni* tasvirlashda bir xil ma'noni anglatadigan turli birikmalardan foydalanishgan, ammo ikkinchi tarjimon chopon so'zining badiiylikni kuchaytirish maqsadida yana *zarrinning* oldiga **festive - bayramona** sifatini ham qo'shgan, lekin, bizningcha bu ortiqcha so'z, negaki *zarrin* so'zi choponning o'zi bayramona ekanligini shundoq ifodalab kelyapti. Matnning boshqa qatorlarida **chopon** so'zini tarjimada ham saqlanib qolganligi va taglama tushuntirish berib o'tilganligi ayni muddao bo'lgan.

Navbatdagi misolni tahlil qiladigan bo'lsak, boshdan-oyoq kiyilgan kiyimlar tarjimasiga, ularning o'xshash va farqli tomonlariga to'xtab o'tishimiz mumkin.

Asliyatda: *Otabek kuyov ko'rindi: boshida simobi shoyi salla, ustida qora movut sirilgan sovsar po'stin, ichida o'zining shamayda tiktirgani osmoni rang movut kamzul, movut shim, oyog'ida qolapoyafzali, belida Kumushbibining usta qo'llari bilan tikilgan shoyi qiyig'...*⁸

⁴ <https://www.gazeta.uz/oz/2018/09/20/otkan-kunlar/suhbat>

⁵ Абдулла Қодирий. Ўтган кунлар.-Т.: Фафур Фулом. -1973. -Б.48.

⁶ Mark E. Reese. *Bygone Days*/ - Asian Book House, 2019. P-37

⁷ Carol Ermakova. *Days Gone By*. Monde Nouvei Publisher, France. 2018. P-39

⁸ Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar.-T. G'afur G'ulom. -1973. -B.59

O'zbek tilidan inglizchaga tarjimasi: *Otabek appeared. He was dressed beautifully. Resting on his head was a silver silk Chalma turban, and on his shoulders hung soft marten furs lined with a coarse-spun fabric. He wore garments ordered especially from Shamai, a sky-blue cloth tunic with matching trousers. His feet displayed supple leather boots and around his slim waist was a silk sash made by the masterful hands of Kumush Bibi*⁹.

Rus tilidan inglizchaga tarjimasi: *Atabek the bridegroom appeared. He was dressed magnificently a shimmering silk turban on his head, a marten fur coat lined with black woolen cloth on his shoulders, with a blue wollen camisole underneath, tailored in Shamay to his own design. He also wore woolen trousers. His feet were shod in city boots, and around his waist was a gift, a silk cummerbund skillfully embroidered by Kumush.*¹⁰

Ushbu parchada boshdan-oyoq kiyiladigan erkaklarning bayramona liboslari tasvirlangan. Ulami boshqa tilga o'girish uchun tarjimon, avvalo bularning har birining qanday kiyim ekanligini, ularga qanday ishlov berilganini yaxshi anglab olishi kerak. Tarjimaga nazar tashlasak, Otabekning boshidagi *simobi shoyi salla*¹¹ birinchi tarjimon tomonidan *a silver silk Chalma turban* deb tarjima qilingan bo'lsa, ikkinchisi tomonidan *a shimmering silk turban* deya o'girilgan. Tarjimonlar bu yerda avval *sallaning* nima ekanligiga ahamiyat qaratib, keyin *simobi* so'zining ma'nosini to'g'ri anglashi kerak bo'ladi. Agar birinchi tarjimon *salla* so'zining ekvivalentlariga e'tiborliroq bo'lganida, har ikkala *chalma* va *turban* so'zlari bitta *salla* ma'nosini anglatishini aniqlab bitta so'zni ikki marta qayta takrorlamagan bo'lar edi. Ya'ni, mutarjim o'z tarjimasi uchun bu ikki gapdan birini yo - **a silver silk Chalma** yo - *a silver silk turban* birikmalaridan bittasini tanlashi kerak edi. Navbatdagi *sovsar po'stinni* tarjimalarida *marten furs* emas, balki *a marten fur coat* deb berilishi kitobxon tushunishi uchun qulay bo'lgan variant deb o'ylaymiz, negaki **fur** so'zi *po'stin* ma'nosini ham anglatadi-da, ko'proq **mo'yna** ma'nosida keng tarqalgan. *Movut kamzulni* birinchi tarjimon *a sky-blue cloth tunic* deb tarjima qilgan bo'lsa, ikkinchisi *a blue wollen camisole* deya o'girgan. Biz bu yerda birinchi tarjimon ishini maqullagan bo'lardik, chunki ikkinchi tarjimada ishlatilgan *camisole* so'zi *ayollar ich kiyimini*, ya'ni *mayka* va h.k larini anglatadi. Keyingi *oyog'ida qolapoyafzali* o'zbekchadan *leather boots* tarzida tarjima qilingan bo'lsa, ruschadan **city boots** deya o'girilgan. *City boots* asosan ayollarning qo'lda tayyorlangan poyafzallarini ifodalagani uchun Otabek *oyog'idagi qolapoyafzalning leather boots* shaklidagi tarjimasini to'g'ri deb bilamiz. Otabekning belidagi *shoyi qiyig'i* o'zbekcha tarjimadan *a silk sash* deb tarjima qilingan bo'lsa, ruscha tarjimadan *a silk cummerbund* deb o'girilgan. Har ikkovining ma'nosi ham **ipak kamar** ni ifodalaydi, demak shoyi qiyiqni oddiygina *a silk belt shoyi belbog'* deb olinsa va unga taglama izoh berib ketilsa *shoyi qiyig'i* imizning milliyliigi saqlangan bo'lar edi.

O'zbek tilining ingliz tiliga nisbatan maqol va matallarga, hikmatli so'zlar va iboralarga boy til ekanligi barchaga ma'lum. Bu til boyligidan Abdulla Qodiriy ham o'z ijodida unumli va mohirona foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Adib asarlarini mutolaa qilganimizda ko'plab maqol, matal, qochiriq, piching, frazeologik iboralarga duch kelamiz. Bularning o'z vaqtida, o'z o'rnida ishlatilishi asarga yanada kuchli jilo beradi. Muallif asarlarini o'qiganingizda siz qahramonlarga nisbatan nafaqat hamdardlik, achinish, kuyinish, xafa bo'lish kabi dardlarni his qilasiz, balki ba'zi joylarda qahramonlar tomonidan aytilgan maqol, kesatiq va qochiriqlarni o'qib bexosdan kulib yuborasiz. Bu bilan nima demoqchimiz, agar adib sizni o'z ijodi orqali bir vaqtning o'zida xafa qilib yig'lata olsa yoki yana kuldira olsa, mana bu haqiqiy asar bo'ladi. Har bir tarjimondan kutiladigan maqsad tarjima

⁹ Mark E. Reese. *Bygone Days* / - Asian Book House, 2019. P-43

¹⁰ Carol Ermakova. *Days Gone By*. Monde Novei Publisher, France. 2018.P-45

¹¹ Abdulla Qodiriy. *O'tgan kunlar*.-T. G'afur G'ulom. -1973. -B.59

jarayonida mana shunday haqiqiy kulminatsiyalarni saqlab qolish va o'quvchiga asl qaymog'ini boricha yetkazib berishdir. Xo'sh, tarjimonlar buni qay darajada uddalay olganliklarini quyidagi misollar orqali ko'rib chiqamiz.

Asliyot: *Voy, sho'rginangga sho'rva to'kilsin Kumush. Men shunday erni topib teksam boshim ko'kka yetar edi*¹².

O'zbekchadan tarjima: *Oh poor, poor thing, but damn you, Kumush! If I had a husband like that I would fly to the sky in joy!*¹³

Ruschadan tarjima: *My, my Kumush. If I were handed such a husband, I should fly to the heavens with delight.*¹⁴

Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, tarjimon adibning nima demoqchiligini yaxshi tushunib maqol, kesatiq va frazeologik iboralarni to'g'ri tanlab tarjima qilishga harakat qilgan. Ammo birinchi misoldagi -*Voy, sho'rginangga sho'rva to'kilsin, Kumush* degan gap negadir ruschadan qilingan tarjimada *My, my Kumush* deya o'girilishi asliyatdagi ma'noning yo'qolishiga, gapdagi badiiylikning kuchsizlanishiga sabab bo'lib qolgandek. Vaholanki, o'zbekchadan qilingan tarjimasida *Oh poor, poor thing, but damn you, Kumush.* tarzida berilishi tarjimonning ish jarayonida nihoyatda e'tiborli bo'lganini ko'rsatardi. Shu o'rinda bizda yana bir taxmin bor, yani mutarjim *sho'rginangga sho'rva to'kilsin* idiomasining asl ma'nosini tushunib yetmagan va natijada chala tarjima qilingan bo'lishi mumkin. *Boshim ko'kka yetar edi* iborasi o'zbekchadan *fly to the sky in joy*, hamda ruschadan -*fly to the heavens with delight* tarzida tarjima qilingan. Har ikki tarjima ham qahramonning *xursandchilikdan boshi osmonga yetishini* ifodalaydi. Bularni o'rniga muqobil variant sifatida -*fly in the seventh heaven-* *yettinchi osmonda uchmoq* iborasini olsak ham bo'ladi. Yana bir misolni tahlil qilib ko'rishimiz mumkin.

Asliyot: *Bu ot savdosi emas, umr savdosi bo'ladi*¹⁵.

O'zbekchadan tarjima: *This is not horse trading; this is dealing with our beloved children's lives, my friend.*¹⁶

Ruschadan tarjima: *We are not talking about buying a stallion, but about the fate of a person.*¹⁷

Tarjimalarda asliyatdagi gapning umumiy mazmuni berilgan. Ammo bizning urf-odatga ko'ra sovchi juda mulohazali inson bo'lib, muloyim gapirishi, ya'ni muloqot odobiga amal qilishi kerak bo'ladi. Mana shu muloyimlik va o'ziga xos milliylikni biz o'zbekchadan qilingan tarjimada *dealing with our beloved children's lives, my friend* ko'rishimiz mumkin. Ruschadan qilingan tarjimada *ot-horse* so'zi o'rniga *ayg'ir - stallion* so'zi ishlatilganligi uchunmi bir oz qo'polroq chiqqan. Bundan tashqari o'zbek xalqi orasida *ayg'ir savdosi* degan ibora yo'q, ammo *ot savdosi, umr savdosi* iboralari mavjud.

Asliyot: *Men uning bir tukiga ham arzimayman. Ammo sen bo'lsang uning bilan tenglashar eding. Teng tengi bilan tezak qopi bilan*¹⁸.

O'zbekchadan tarjima: *I am not worth even one of his hairs. But you would equal him. Equal with equal, type with type, dung in its very own bag.*¹⁹

¹² Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar.-T. G'afur G'ulom. -1973. -B.58

¹³ Mark E. Reese. *Bygone Days/ - Asian Book House, 2019. P-59*

¹⁴ Carol Ermakova. *Days Gone By. Monde Nouvei Publisher, France. 2018.P-59*

¹⁵ Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar.-T. G'afur G'ulom. -1973. -B.45

¹⁶ Mark E. Reese. *Bygone Days/ - Asian Book House, 2019. P-46*

¹⁷ Carol Ermakova. *Days Gone By. Monde Nouvei Publisher, France. 2018.P-47*

¹⁸ Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar.-T. G'afur G'ulom. -1973. -B.33

¹⁹ Mark E. Reese. *Bygone Days/ - Asian Book House, 2019. P-34*

Ruschadan tarjima: *But I'm not worth a hair on his head! But you well now, you are a good match for him. Each to their own, but dung belongs in a sack.*²⁰

A.Qodiriy o'z ijodidagi nafaqat oliy mansabli amaldorlar, balki oddiy bir xizmatkorlarning tilidan gapirganda ham maqol, matal va metaforalar ishlatish orqali oddiy o'zbek xalqining ilgari ham bir omi odamlar emas, sodda bo'lsa ham ziyrak, so'zga chechan va zukko xalq ekanligini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Fikrimizning isboti sifatida yuqorida tahlil etilgan jummalarda ishlatilgan maqol, matal va iboralar Qutidor uyidagi oddiy oqsoch ayol To'ybikaga tegishli ekanligini olishimiz mumkin. Bu misolni har ikki mutarjim chiroyli o'girishga harakat qilishgan bo'lsa-da, o'zbek tilidan qilingan tarjimada *bir dona tukiga ham arzimayman* iborasi ***I am not worth even one of his hairs*** ga mos keladi. Ikkinchi tarjimon o'giran jumlada esa ko'proq *bir tola sochiga ham arzimayman* - But ***I'm not worth a hair on his head*** ma'nosi kelib chiqadi. Bizni tilda asosan bir dona tukiga ham arzimaysan iborasi, birovning boshqa bir insonga mos emasligini ko'rsatishda qo'llaniladi. *Boshidan bir tola sochi to'kilmasin* iborasi esa birovning boshqa bir insonga do'q-po'pisa qilishini, kimgadir zarar berishni ta'qiqlashni ifodalaydi. Shu sababli birinchi tarjimoni ma'qullash o'rinlidir.

XULOSA

Xulosa sifatida, shuni aytish mumkinki, bevosita qilingan tarjima bilvosita tarjimaga nisbatan asliyatga ancha yaqin bo'ladi, chunki tarjimon asarning asl tilini yaxshi tushunsa, mohiyatini yaxshi anglasa va o'zida his qila olsa, u albatta asarni to'g'ridan-to'g'ri boshqa tilga o'girganda yuqori natijaga erishadi. Bilvosita tarjimada bo'lsa, mutarjim asarni qaysi tilda o'qigan bo'lsa, shu o'qigan tilining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'giradi. Masalan, A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanini tarjima qilish jarayonida, asarni o'zbek tilida o'qib ingliz tiliga bevosita tarjima qilgan Mark Rizning, uni rus tilida o'qib bilvosita inglizchaga o'giran Kerol Yermakovaga nisbatan tarjimoni asliyatga yaqin hamda sifatli qilib o'girishga imkoni ko'proq bo'lgan va bunga erishgan ham. Shundan kelib chiqib ishonch bilan ayta olamizki, tarjimon har qanday asarni tarjima qilishda, xoh u badiiy asar bo'lsin, xoh she'riyat, xoh tarixiy bo'lsin, xoh zamonaviy asar bo'lsin, mutarjim asliyatdagi milliy ruhni, milliy koloritni, milliy madaniyatni va milliy o'ziga xoslikni ifodalovchi har bir tushunchalarni saqlagan holda, butunlay notanish bo'lgan boshqa tilga, boshqa dinga, boshqa davrga va boshqa madaniyatga oid bo'lgan kitobxonlarga asarning asl mazmunini yetkazib berishi uchun o'zini tarjima uslubiga, mahoratiga va maktabiga ega bo'lishi shart ekan. Chunki ular oldida asardagi har bir tushuncha va hodisalarni kitobxoniga to'la-to'kis yetkazib berish vazifasi turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Влахов С., Флорин С., Непереваемое в переводе. – Москва «Международное отношение», 1980.
2. Carol Ermakova. Days Gone By. Monde Nouvei Publisher, France. 2018.
3. Isaqova Sh. Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi. F.f.nomz....diss.- Toshkent:2004.
4. Khabibullaeva M. Experience of translating historical novels in translation studies. //American Journal of social science and education innovations 6 (6) 80-90, 2021.
5. Khabibullaeva M.E. The role and importance of Artistic translation in novels.//Vital Annex International Journal of Novel Research in Advanced Sciences1...2022.
6. Mark E. Reese. Bygone Days/ - Asian Book House, 2019.
7. Salomov G'., Tarjima nazariyasiga kirish.//O'qituvchi. T.,1978.
8. Hamidov X.O'zbek qissa va romanlari turk tilida, monog-rafiya//Toshkent "EFFECT-D" - 2022.
9. Xamrayev.X. Milliy xos so'zlar, realiyalar va badiiy tarjima.//Tarjima madaniyati. T.,1982.

²⁰ Carol Ermakova. Days Gone By. Monde Nouvei Publisher, France. 2018.P-35

10. Xabibullayeva M. Tarjimoni ilmiy-ijod jarayon sifatida tadqiq etish usullari. Xalqaro forum to'plami 2 (29).Toshkent, 2022.
11. Xabibullayeva M. Tarixiy romanlarni tarjima qilish jarayonida uslub muammosi. Sharqshunoslik ilmiy jurnali Toshkent, 2021.
12. A.Qodiriy. O'tgan kunlar.//Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at,1973.
13. Sharipov J. Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar. Toshkent.Fan.1972.